

PUDRAT SHARTNOMASI (KONTRAKT)

Tuproqqal'a tumani

«12» sentyabr 2022y.

Tuproqqal'a tuman Xalq talimi bo'limi keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan nomidan nizom asosida ish ko'ruvchi O.Matkarimov bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan "HAZORASP SAVDO-QURILISH" MCHJ nomidan nizom asosida ish kuruvchi A.Babaev ikkinchi tomondan « joriy ta'mirlash ishlarini bajarish» bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

- **ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofikligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda obyekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va urnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;
- **qurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Obyektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofik belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;
- **vaqtinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida urnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar kandy tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;
- **berkitiladigan ishlar** – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;
- **shartnoma narxini bo'lib chikish** – ishlarning xar bir boskichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha obyektning umumiy qiymatini boskichlarga taksimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofik **Tuproqqal'a tuman Xalq talimi bo'limiga qarashli 4-maktabni** ko'zda tutilgan loyixa xujjatlari bo'yicha **joriy tamirlash ishlarini bajarish** majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar qiymati barcha soliqlar, yigimlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini uz ichiga olgan xolda joriy narxlarda QQS bilan **20 150 150 (Yigirma million bir yuz ellik ming bir yuz ellik)** so'mni tashkil etadi.
4. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:
- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
  - ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
  - obyektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.
5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab utilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi urtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofik ishlarni bajarishda nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda uzining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofik topshirish;
  - qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saklashni ta'minlaydi;
  - qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar kurish;
  - Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;
  - qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroklari urnatish;
  - qurilish tavakkalchiliklarini sugurta qilish;
  - mazkur shartnoma bo'yicha obyektini foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini uziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bushatish;
  - qurilish maydoni kuriklanishini ta'minlash;
  - qurilishda tavakkalchilik sugurtasi uchun belgilangan summaga sugurta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sugurtasi to'g'risida shartnoma tuzadi va sugurta shartnomasi bilan sugurta polisini byurtmachiga takdim qiladi.
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini uz zimmasiga oladi.
8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan uzining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat kursatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablaglarini mazkur shartnomada kuzda tutilgan obyekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.
9. Pudratchi obyektini foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentatsiya) to'liq xajmda takdim qiladi.
10. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning uz kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda obyektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofik ishlarni bajarish uchun yarakli bo'lgan qurilish maydonini obyekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrga dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada kayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
  - Pudratchining barcha murojaatlarini un kun muddatda ko'rib chikish va qaror qabul qilish;
  - Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ruyxatini takdim etish;
  - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada kuzda tutilgan uz majburiyatlarini bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

## VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. SHartnoma G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.  
 14. Pudratchi mazkur shartnomada kuzda tutilgan loyixa xujjatlari bo'yicha joriy tamirlash ishlarini bajaradi.  
 15. Tamirlash ishlari bajarish muddati 20 kalendar kunni tashkil etadi.

## VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. SHartnoma bo'yicha uzaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «sumda» qilinadi.  
 17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans utkazadi, bu **6045045** so'mmi tashkil etadi.  
 18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maksadli berilgan mablaglar uch banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi.  
 19. Buyurtmachi tomonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xakikiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab kolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.  
 20. Pudratchining xisob rakamiga tushadigan mablaglar ushbu obyekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, obyekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xak ulash, obyekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga tulash uchun va Ushbu obyekt qurilishining boshqa xarajatlariga kat'iy sarflanadi.  
 21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot o'ning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish-montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma xisob-varak-fakturani» uzi tuzib takdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.  
 22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan sung Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo cheqiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varak-faktura» asos bo'ladi.  
 23. Pudratchi obyekt foydalanishga topshirilgunga kadar mazkur shartnoma bo'yicha obyektga mulk xukukini uzida saklaydi. Obyekt Buyurtmachiga topshirgunga kadar obyektning tasodifiy yuk qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

## VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida uz vaqilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini tekshiradi.  
 25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan tusiksiz tanishish xukukiga egadir.  
 26. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chogida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yigilishlarda muntazam ravishda katnashadi.  
 27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida kursatilgan muddatlar bilan muvofiklashtirilgan uz rejasi va ish jadvaliga binoan obyektida ishlarni bajarishni mustakil ravishda tashkil etadi.  
 28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir kilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiikishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bo'larning qurilish sifati ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.  
 29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi uz kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifati ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.  
 Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi okibatida etkazilgan zararlarini Buyurtmachiga tulaydi.  
 30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar kursatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'lik to'htab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.  
 Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifati dan yoki Pudratchining qaydalaridan qonikmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida uz fikrini bayon qiladi.  
 Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## IX. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar kisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlarini natijasida kelib chiksa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday kisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.  
 Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlarini amal kilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.  
 32. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlarini yoki ularning okibatlarini bir oydan kup vaqtga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun kandy choralari qurilishini muxokama qiladilar.  
 33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaklidir.

## XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:  
 - barcha ishlarni to'liq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;  
 - loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofik barcha ishlarni bajarish sifati;  
 - uzi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifati, ularning loyixa xujjatlarida kursatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofikligini;  
 - ishlarni qabul qilish va obyektidan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuksonlarni uz vaqtida bartaraf qilishini;

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuksonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada kursatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

## XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'lmagan sabablarga kura Pudratchi tomonidan bir oydan kup vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni to'g'atishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun xujjatlariga muvofik boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xukukiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'lmagan sabablarga kura Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga tuxtatib quyilganda;
  - Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;
- qonun xujjatlariga muvofik boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xukukiga ega.
37. SHartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining kushma karoriga kura tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga tulaydi.
38. Mazkur shartnomani bekor qilishga karor kilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofik ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.
39. SHartnoma bekor qilingan takdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani tulaydi.
40. SHartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yul quyilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

## XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Mazkur shartnomada kuzda tutilgan va tegishli ilovalarda kursatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda obyektning ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma bo'yicha buning okibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish kuzda tutilgan ishlarning bajarilmagan kismining 5% miqdorida jarima tulaydi;
- Buyurtmachining xisob rakamiga maksadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablaglarini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob rakamiga utkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima tulaydi;
- shartnomaga muvofik ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiqlashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul qilish, tasdiqlashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima tulaydi;
- shartnoma shartlariga muvofik tayyor xolda qabul qilish uchun takdim qilingan obyektning asossiz ravishda qabul qilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima tulaydi;

42. Mazkur shartnomada kuzda tutilgan va tegishli ilovalarda kursatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa, majburiyatlarining bajarilmagan kismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.01% miqdorda penya tulaydi.
- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga kadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar qiymatining 0.1% miqdorida jarima tulaydi;
- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan kismining 0.1% miqdorida jarima tulaydi;
- obyektning shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 0.1% miqdorida jarima tulaydi;
- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tomonidan aniqlangan kamchiliklar, nuksonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (un kundan ortiq bo'lmagan) muddatda bartaraf kilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuksonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima tulaydi.

43. Agarda tomonlardan biri uz rekvizitlarini shu jumladan yuridiq va pochta manzillarini, telefon rakamlarini, korxonaga atamasi yoki makomini noto'g'ri bersa va o'zgartirish to'g'risidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tomon ikkinchi tomonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima tulaydi.

44. Bir tamoning aybi bilan shartnomani bekor qilishga to'g'ri kelsa, aybdor tomon ikkinchi tamonga barcha zararlarni koplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.

45. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib tulaydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.

46. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaklidir.

## XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

47. SHartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek etkazilgan zararlarni koplashda paydo bo'ladigan barcha nizol masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

## XV. TOMONLARNING KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI.

48. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

49. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan hofatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

50. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

## XVI. ALOXIDA SHARTLAR

51. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar urtasidagi barcha oldingi yozma va ogzaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning uzaro kelishuvlari uz kuchini yukotadi.
52. Pudratchi qurilish obyektiga yoki uning aloxida kismilariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashkari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xukukiga ega bo'lmaydi.
53. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xakikiy xisoblanadi.
54. Buyurtmachi bilan Pudratchi urtasidagi mazkur shartnomadan kelib chikmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar kanda axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.
55. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida uziga tegishli mol-mulkni koldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xak tulashni kechiktirishga xaklidir.
56. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun xujjatlariga QQS to'g'risida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.
57. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari qo'llaniladi.
58. Mazkur shartnoma Byudjet kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.
59. Mazkur shartnoma bir xil yuridiq kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.
59. SHartnomani amal qilish muddati «31» Dekabr 2022 yilgacha.

## XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIQ MANZILLARI.

### PUDRATCHI:

### BUYURTMACHI:

"HAZORASP SAVDO-QURILISH" MCHJ	Tuproqqal'a tuman Xalq talimi bo'limi
Manzili: Tuprokkala tumani Muxabbat maxallasi	Manzili: Tuprokkala tumani
Tel/faks: 97-5120346	Tel/faks: 93-928-87-10
h/r: 20208000800956529001	sh/hr: 100022860332217092100075021
INN: 305945118	INN: 307302504
OKONX: 61110	MFO : 00014 . INN: 201122919
Bank: Xozarasp t Agrobank	Moliya Vazirligi G'aznachiligi
MFO: 00558	G'azna x/v : 23402000300100001010
	Bank : Markaziy bank Toshkent sh XKKM

M.O:

A.Babaev



M.O:

O.Matkarimov



## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

- 1.Loyihaning turi: Shartnoma.
- 2.Loyihaning nomi: Pudrat shartnomasi.

Bir tomondan "HAZORASP SAVDO-QURILISH" MCHJ nomidan nizom asosida ish ko'ruvchi A.Babaev ikkinchi tomondan Tuproqqal'a tuman Xalq talimi bo'limi «Buyurtmachi» nomidan O.Matkarimov Tuproqqal'a tuman Xalq talimi bo'limiga qarashli 4-maktabni « joriy ta'mirlash ishlarini bajarish» bo'yicha 20 150 150 (Yigirma million bir yuz ellik ming bir yuz ellik) so'mlik pudrat shartnomasini tuzish to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Tuproqqal'a tuman Xalq ta'lim bo'limi tomonidan 2022 yil 13 sentyabr kuni ishlab chiqilgan va 2022 yil 13 sentyabr dasturga kiritilgan va Tuproqqal'a tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga yuborilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlari talablari asosida ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Tuproqqal'a tumani  
yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuriskonsulti



M.Sadikova

2022 yil " 13 " sentyabr

